

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 1, 2018

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro, 2018

D.Davronova, F. Namozov. O'zbekiston yoshlari baxti – iqboli va buyuk kelajagini yaratgan inson.....	7
--	---

PEDAGOGIKA YA PSIXOLOGIYA

M. Mahmudov. Ta'limni didaktik loyihalashning yangi qirralari.....	10
Z. Azimova. Talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....	14
В. Коллов. Личность преподавателя высшей школы: проблема самореализации.....	18
Ю. Павлова. Современные тенденции в исследованиях социальной адаптации личности студента... ..	25
Н. Патажнина. Образовательное пространство вога Украины второй половины XIX – начала XX всков.....	29
Н.Муелова. Методика разработки учебных целей в программах образовательных дисциплин в системе непрерывного образования.....	34
N. Xalilova. Talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etishning refleksiv metod va usullari.....	37
G. Izbullayeva. XII-XIII asrlarda ta'lim tizimi.....	41
R.Nematova. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar sensor madaniyatini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish.....	45
Z. Allardonov. Oliy harbiy ta'lim muassasalari harbiy xizmatchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati.....	49
A.Ismanova. O'smirlardagi deviant xulq muammolarining ijtimoiy-psixologik jihatlari va ularning oldini olish yo'llari.....	53
E.Muxtarov. Vrach kasbiy tafakkurini rivojlantirish usullari.....	58
R.Achilova, S. Qodirova. Understanding educational psychology.....	63
D.Tosheva. Shaax kamolatida o'qituvchi-murabbiyning o'rni.....	66
F. Shadlyev. Psixodiagnostika – psixologik xizmatning muhim yo'nalishlaridan biri.....	69
Sh. Farmonova. Loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish didaktik muammo sifatida.....	74
Ю. Бордюг. Педагогические условия формирования готовности воспитателей к работе с детьми в условиях специальных групп дошкольных образовательных учреждений.....	80
M. Tilayeva. O'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashda o'quv mashg'ulotlarining imkoniyatlari.....	88
D. Mirzayeva. Mustaqil ishlash – bilim olish va talabalarning faolligini ta'minlash usuli.....	93

BOSHLAG'ICH TA'LIM

S. Avezov, M.Sharipova. Qoshiqlarning lingvopoeitik tabiat va tahlili xususida.....	99
F. Safarov. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'atidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	103
G. Sayfullayev, I. Allmova, A.Sayfullayeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda kuzatish metodidan foydalanish.....	110
R.Jumayev, S.Mahmudova. Ahmad Donishning pedagogik qarashlari va hozirgi zamon.....	114
N.Adizova. Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning metodik ahamiyati.....	117
N.Safarova. O'yinchoqlarning bolalar yoshiga, jinsiga va o'yin mazmuniga ko'ra turlanishi.....	120
Z. Umurov. O'quv-biluv muammolari.....	124
R. Isroilova. O'qish darslarida rivozat va pandnomalarni integratsiyalash asosida o'rganishning didaktik asoslari.....	130
M. Junayeva. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish samaradorlik omili.....	134
F. Qosimov, M.Qosimova. Masala qisqa sharti uning modelidir.....	138
M.Hakimova. Boshlang'ich sinflarda ko'pburchak perimetri va figura yuzasi tushunchalarini o'rgatish metodikasi.....	145

IJTIMOIY-GUMANITAR TA'LIM

B.Rizayev. Oliy ta'limda "O'rtta asrlar tarixi" fanini o'qitishning dolzarb muammolari.....	149
M. Джанобилова. Актуальные вопросы семейного права в юридическом образовании.....	153
S. Gulyamova. Traditional education: yesterday, today and tomorrow.....	160
M.Norova. Milliy-ma'naviy segizaga tayanish – demokratik jamiyat qurishning zaruriy sharti.....	165
N.Esanov, F.O'tayeva. O'zbekiston tarixini o'qitishda matematik bilimlarni shakllantirish uchun tarixiy faktlarning o'rni.....	168

ANQVA TARIQANSLAR

G. Xudoyazarova, Sh. Zaripova, Sh. Xudoyazarova. "Metallar va metallmaslar. Murakkab modda.....	172
---	-----



Mehrimiso HAKIMOVA
 Buxoro davlat universiteti
 boshlang'ich va maktabgacha
 ta'lim uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA KO'PBURCHAK PERIMETRI VA FIGURA YUZASI
 TUSII UNCHALARINI O'RGATISH METODIKASI**

Muqolada boshlang'ich sinflarda ko'pburchak perimetri va figura yuzasi tushunchalarini o'rgatish bo'yicha fikr yuritilgan.

Tayyanch tushunchalar: ko'pburchak perimetr, uzunlik, geometrik shakl, uchburchak, tushuncha. В статье рассматривается об обучении периметра многоугольников и поверхности фигур в начальных классах.

Основные понятия: многоугольник, периметр, длина, геометрическая фигура, треугольник, понятие.

In article is reflected on learning of concepts about the perimeters of polygons and the surface of figures to the initial classes.

Supporting concepts: polygon, perimeter, length, geometric figure, triangle, concept.

“Ko'pburchak perimetri” tushunchasi bilan o'quvchilar 2-sinfning 1-choragida, aniqroq qilib aytganda matematika darsligining 13-sahifasidan tanisha boshlaydilar. Ammo unga tayyorgarlik ishlari 1-sinfda boshlanadi. Bu davrda o'quvchilar quyidagi mazmundagi topshiriqlarni bajarishadi:

Kesma uzunligini chizg'ich yordamida o'lcha.

1. Berilgan uzunlikdagi kesmani yasa. Masalan: 4 sm uzunlikdagi kesma chiz.
2. Ikki ta turli uzunlikdagi kesma chiz. Ularni chizg'ich yordamida o'lcha va uzunliklarini inqosla.
3. Chizg'ich yordamida nuqtalarni ketma-ket birlashtir. Qanday shakllar hosil bo'ldi? (1-sinf darsligidan 92-betdagi 11-topshiriq)
4. a) tomoni 2 sm bo'lgan kvadrat chizing.
 b) tomonlari 2 sm va 3 sm bo'lgan to'rtburchak chizing. (1-sinf 92-betdagi 9-topshiriq)
6. Shakllar tomonlarining uzunligini chizg'ich yordamida o'lchang. (1-sinf 88-betdagi 10-topshiriq)



7. 1-sinf matematika darsligining 87-betida “Kesmalarning uzunligini o'lchash va taqqoslash” degan mavzu ko'pburchak perimetri tushunchasi mazmuni va mohiyatini ochib berish uchun tayyorlov mavzusi hisoblanadi.

1-topshiriq. Shakllarning har bir tomonini chizg'ich yordamida o'lchang.



Bu yerda o'qituvchi sinf o'quvchilari bilan amaliy ish tarzida har bir o'quvchi uchun yakka yoki bir partada 2 ta o'quvchi uchun oldindan tayyorlangan geometrik shakllarni berib, chizg'ich yordamida uning tomonlarini o'lchash topshirig'ini berib, o'quvchilarda ko'pburchak tomonlarini o'lchash ko'nikmalarini shakllantirib boradi.

1. Kesmalarni qo'shish va ayirishga doir ko'p masala va topshiriqlar bajarishadi.

2. Siniq chiziq uzunligini hisoblash. Uni "to'g'irlash" ya'ni siniq chiziqni to'g'ri chiziq kesmasi o'qali ifodalashga o'rgatish.

3. "Ko'pburchak perimetri" tushunchasi bilan tanishtirish.

Dejlab amaliy ish tarzida sinf o'quvchilariga uchburchak rasmi tasvirlangan qog'oz varaqlari topshiriladi. (Hamma o'quvchiga bir xil) Chizg'ich yordamida shu uchburchak tomonlarini o'lchab, ma'lumotlarni uchburchak tomonlari ustiga yozish aytiladi.



Masalan, uchburchak tomonlari mo'x ravishda 4 sm, 5 sm, 6 sm.

So'ngra shu tomonlar uzunliklarini qo'shish topshirigi beriladi: $4\text{sm} + 5\text{sm} + 6\text{sm} = 15\text{sm}$. Bu uchburchak tomonlari uzunliklari yig'indisi ekanligi o'quvchilarga yetkaziladi. Shunda o'qituvchi "Perimetr" atamasi bilan o'quvchilarni tanishtirishi mumkin. Ya'ni "O'quvchilar, biz hozir nima topdik? Mana shu uchburchak tomonlar yig'indisi bu uchburchak perimetri deb nomlanadi" deb aytish mumkin. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilar diqqatini doskadagi to'rtburchak tomoni uzunliklari yig'indisini topish masalasiga qaratadi.



Qonda bilan tanishtiriladi. "Ko'pburchakning barcha tomonlari uzunliklari yig'indisi uning perimetridir". O'quvchilar diqqati shu mavzuga oid savollarga qaratiladi. Mustahkamlash bosqichida yana o'quvchilarga varaqalar tarqatiladi. Unda shakllar chizilgan bo'ladi. O'quvchi shu shakllarni daftarga chizib olib, uning perimetrisini mustaqil ish tarzida topadi.



2-sinf darajaligining 17-betidagi 5-topshiriq amaliy ish tarzida o'quvchilar tomonidan bajariladi. Chizg'ich yordamida ko'pburchaklar tomonlarini o'lchab.



a) tayyorgarlik ishlari. Figura yuzasi tushunchasini kiritib: "Ko'pburchak yuzasi shaklining yuzi" mavzusi 2-sinfdan boshlab o'rganiladi. Ammo tegishli tayyorgarlik ishlari 1-sinfdan boshlanadi. Bu davrda o'quvchilarga shakllardagi kataklarni sanash figuralarni berilgan shaklga ko'ra kataklar bo'yicha yasash, figuralar qirg'iq, ustiga qo'yish yo'li bilan figuralarni taqqoslashga oid mashqlar beriladi. "Shakllarning yuzi" tushunchasini quyidagi tartibda o'rganish maqsadga muvofiq: 1) taqqoslash, qaysi shakl tekislikda ko'proq o'rin olishini aniqlash asosida shaklning yuzi haqidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish; 2) birlik kvadrat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, bu kvadrat yordamida shakllarning qaysisining yuzi katta ekanligini har doim aniqlash mumkin. Kvadrat santimetr bilan tanishtirish; 3) har xil figuralar yuzlarini kvadrat santimetrlarda topish. "Paletka"dan foydalanish; 4) to'g'ri to'rtburchakning yuzini kvadrat santimetrlarda hisoblash; 5) to'g'ri to'rtburchakning yuzini kvadrat desimetrlarda hisoblash; 6) to'g'ri to'rtburchakning yuzini kvadrat

metrlarda hisoblash: 7) yuza o'lchov birliklari kvadrat millimetre, ga, ar, kvadrat kilometrlar bilan tanishtirish. Shakllarning yuzi haqidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirishdan oldin o'quvchilarga kesmalarni taqqoslash, umumiy jihatdan "katta", "kichik", "teng" munosabatlar haqidagi tushuntirish maqsadga muvofiq. Yuzalarni taqqoslash kesmalarni taqqoslashdan tubdan farq qiladi. Shaklning yuzi tushunchasi shakllantirishda amaliy naashqlarga alohida e'tibor berish kerak. 1-sinf o'quvchisi geometrik shakllar: uchburchak, kvadrat, to'rtburchak, doiralardan sanoq materiali sifatida foydalanar ekan, "katta uchburchak", "kichik kvadrat", "katta doira" kabi tushunchalarni ishlatadi.

2-sinf matematika darsligining 183-betda "Shaklning yuzi" mavzusi o'rin olgan. Unda 1-topshiriq shakllarni taqqoslashga oid: quyidagi shakllarning yuzlarini ko'z bilan chamalab taqqoslash.



2 ta shakllarning yuzi qanday taqqoslanadi?


- a) ko'zi bilan chamalab taqqoslanadi;
- b) yonma-yon qo'yib taqqoslanadi;
- d) ustma-ust qo'yib taqqoslanadi;
- e) biror o'lchov asosida o'lchanib taqqoslanadi.

2-sinf darsligidagi 2-topshiriq (183-bet) shakllarni taqqoslashga qaratilgan.



1-shakldagi uchburchak to'rtburchak ichiga to'la joylashgan; 2-shakldan iborat beshburchak ichiga to'la joylashgan. Bu uchburchakning yuzi to'rtburchak yuzidan kichik, kvadratning yuzi esa beshburchak yuzidan kichik ekanini bildiradi. Yuza bu - o'lchash mumkin bo'lgan kattaligidir.

Shakllar ichida bir-birining ustiga qo'yish mumkin bo'lmagan holdlarda bu shaklning yuzalari qanday taqqoslanadi? Masalan:



Bu savol o'quvchilarga yuzalarni taqqoslash bo'yicha muammoli savol bo'ladi. Bu savolga javob berish uchun o'quvchi o'ylaydi. Bu shakllarni teng bo'lgan kvadratlarga yoki uchburchaklarga bo'lish kerak bo'lgan fikrga kelishi mumkin. Darhaqiqat, shakl yuzalarini taqqoslashning yana bir usuli katakli qog'ozda tasvirlangan shakllarni kvadratlarga bo'lib chiqadi. O'quvchi shu shakllarning orqasida ularning teng kvadratlarga ajratgan holda namoyish qiladi va shakllardan kvadratlar sonini sanab chiqish orqali taqqoslashadi.

To'g'ri to'rtburchak, kvadrat yuzasini kvadrat santimetrlarda o'lchash bilan tanishtirish. Bu ham amaliy ish tarzi o'quvchilarga bittadan to'g'ri to'rtburchak va kvadrat shakllari tasvirlangan varaqalar taqatiladi. Kvadrat santimetr o'lchov birligi yordamida dasilab to'g'ri to'rtburchak, so'ngira

kvadrat berilgan kv. sm larga ajratiladi. Kvadrat santimetr larini sanash bilan to'g'ri to'rtburchak necha kvadrat santimetrodan iborat ekanligi aniqlanadi.



Uzunligi 4sm va eni 3sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak va kvadrat santimetrylarga bo'lingan. Har bir 4 kv. bo'lgan 3 qator yoki har biri 3 kv. sm bo'lgan 4-ustun hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning yuzasini hisoblash uchun 4 va 3 sonlarining ko'paytmasini topish kerak.

$$4 \times 3 = 12 \text{ yoki } 3 \times 4 = 12$$

Javob: 12 kv. sm

Kvadrat yuzi esa $3 \times 3 = 9$ kv. sm

Shundan so'ng to'g'ri to'rtburchak va kvadrat yuzini topish qoidasi o'quvchilarga yetkaziladi.

To'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblash uchun uning bo'yini va enini o'lchab, hosil bo'lgan sonlar o'zaro ko'paytiriladi.

Kvadrat yuzini topish uchun tomon uzunligini o'lchab, uning son qiymatini o'z-o'ziga ko'paytirish kerak.

3-sinfning 1-3-choragida to'g'ri to'rtburchakning yuzini topish, yuzi va eniga ko'ra bo'yini topish yoki yuzi va bo'yiga ko'ra enini topishga doir ko'plab topshiriqlar bajariladi. 4-chorakda "Kvadrat detsimetr" (kv. dm) bilan tanishtiriladi. Kvadrat detsimetr bilan tanishtirishda ham amaliy ishdan foydalanish maqsadga muvofiq. Barcha o'quvchilarga yoki har bir partada o'tiradigan ikkita o'quvchi uchun 1 tadan tomoni 10 sm ga teng kvadrat shakli tasvirlangan varaqalar beriladi. Tomonlarni kvadrat santimetr modelidan foydalanib qo'shni tomon uzunliklari o'lchanadi. Ular 10 sm dan iborat ekanligiga ishonch hosil qilishadi. Shunda o'quvchi kvadrat tomonini 10sm-1dm bo'lgan kvadratni o'quvchilarga ko'rsatib, "Tomonlarining uzunligi 1dm dan bo'lgan kvadratning yuzi 1 kvadrat detsimetr deb ataladi". "Kvadrat detsimetr" qisqacha "kv. dm" deb yoziladi deb izohlaydi.

Adabiyotlar

1. Jumayev M. E., Tadjiyeva Z. F. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (Darslik) Toshkent: "Fan va texnologiya", 2005. – B. 239-258.
2. Bikbayeva N. U., Sidelnikova R. I., Adembekova G. A. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – T. "O'qituvchi", 1996. – B. 405-424.
3. Тажиева З.Г., Абдуллаева Б. С., Жумаев М. Е., Сидельникова Р. И., Садикова А. В. Методика преподавания математики. Учебник. – Т. "Турон нибон", 2011. – B. 249-275.
4. Jumayev M. E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. – T.: O'qituvchi, 2004.
5. Jumayev M. E. Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. – T.: "Yangi asr avlodi", 2006.